

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI

Mardiyev Tulqin Kuliboyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent

Isoqulova Sojida Said qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sektorining zamonaviylashtiruvchi strategiyalarini rivojlantirish bo'yicha jahon istiqbolli tendensiyalari hamda xorijiy til o'rganishning iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot jarayoni integratsion tahlil, tizimli pozitsiya va kvantitativ usulda xizmatlar amaliyotining umumbashariy xorijiy til o'rganish dinamikasi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, raqamli xizmatlar hamda innovatsion texnologiyalarning qarshi ta'sir effektlari aynan Jahon Banki, UNCTAD, WTO va OECD ma'lumotlar bazasiga tayanib ko'rib chiqilgan. O'zbekistondagi xizmatlar sohasining jadallashtirish targ'iboti, eksport salohiyatini yaxshilash hamda aholining xorijiy til o'rganish salohiyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sektori, raqamli transformatsiya, jahon tendensiyalari, iqtisodiy o'sish, innovatsion texnologiyalar, eksport, raqobatbardoshlik, fintech, elektron tijorat.

Annotation: This article analyzes global prospective trends in developing modernization strategies for the service sector and their role in the post – industrial economy. The research process, based on integrative analysis, a systemic approach, and quantitative methods, provides information on the universal dynamics of service practices. In addition, the counter – impact effects of digital services and innovative technologies are examined with reference to the databases of the World Bank, UNCTAD, WTO, and OECD. Recommendations are also provided on accelerating the promotion of the service sector in Uzbekistan, improving its export potential, and enhancing the population's foreign – language learning capacity.

Keywords: service sector, digital transformation, global trends, economic growth, innovative technologies, export, competitiveness, fintech, e-commerce.

KIRISH

Hozirgi jadallik bilan rivojlanayotgan bu zamonda, xizmatlar sektorida ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va eng dolzarbi xorijiy tillarning xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rni kabi iqtisodiy, ijtimoiy o'sishning asosiy prinsiplari shakllanmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasi global yalpi ichki mahsulotning 65-70 foizini tashkil etadi va bu dinamik ko'rsatkich yildan – yilga chet tillar tatbig'ini uyg'unlashtirgan holda o'sib bormoqda. Jahon amaliyotida xizmat ko'rsatish tarmog'i, ishlab chiqarish hamda qishloq xo'jaligidan keyin uchinchi portative sektor sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, bugungi kunda u iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylanib, ish o'rinlarining ko'pchiligini ta'minlaydi.[1] Xizmat ko'rsatish jabhasining rivojlanishida xorijiy tillar xalqaro umumjahon bo'lish hamkorligini mustahkamlaydi, turizm hamda mehmonxona industriyasini takomallashtiradi, ishchi – xodimlarning strategik jihatdan til o'rganish malakasini oshiradi va ko'pgina tarmoqlararo raqobatbardoshlikni targ'ib qiladi. Qolaversa, texnologik birla chet tillarini bilishga intilish hamda boshqa yo'nalishlardagi xizmatlar amaliyot sifatida targ'ib qilinadi. Aynan ushbu tendensiya xorijiy tillarni bilgan professional kadrlarni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"¹gi PQ-104-son farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun tijorat banklariga 150 million AQSH dollari ekvivalenti kredit liniyasi prinsipi joriy etilishi aytib o'tilgan. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi xizmatlar sohasida tub o'zgarishlarni super tezlikda tezlashtirdi. Shu sababli, xizmat ko'rsatish sohasining barqaror takomallashishi samarali effektda chet tillarni o'qitish texnologiyasining va innovatsion faollikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5840284?ONDATE=28.02.2025> sayti

METADOLOGIYA

Xizmat ko'rsatish tarmog'ining sifatini oshirish, xalqaro standartlarda xorijiy til o'rganish sektori va raqobatbardoshlik uchun faqat infratuzilma emas, balki til kommunikatsiyasidan innovatsion bilim talab qiladi. Masalan, Namangan davlat chet tillar institutining til mutaxassisligini chuqurlashtirish va tilni bilgan kadrlar bazasini kengaytirish uchun muhimdir va bu respublikada xizmat sanog'iga bir zamin sifatida gavdalanadi. Xizmatlar sanoatining yillik o'sish sur'ati 2024-yilda 6,7 foizni tashkil etgan bo'lib, YaIM o'sishiga taxminan 3,1 foiz punkt hissasini qo'shgan. Qolaversa, xorijiy o'quv - uslubiy tajriba ham bu yo'nalishning istiqbolli konsepsiya ekanligini tasdiqlaydi. Misol tariqasida aytiladigan bo'lsa, Jahon Bankining (2023) "The Promise of Service-Led Growth"² hisobotida ta'kidlanishicha, xizmatlar targ'iboti iqtisodiy rag'batlantirishda ishlab chiqarish sanoati bilan teng miqyosda xorijiy tillarning nufuzini oshirish dinamikasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning so'nggi yillaridagi iqtisodiy tarmog'i super yuqori salohiyatga ega xizmat turlarining barqarorligini ta'minlashga hamda til o'rganish istiqbolligini yanada takomallashtirishga qaratilgan sanaladi. Shuningdek, elektron tijorat 5,82 trillion dollar bozor hajmi bilan ikkinchi o'rinda turib, 18,7 foiz yillik ko'rsatkichida ildamlash salohiyati ko'rsatib o'tilgan. Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga yetkazib berish, shu qatorda ko'ngilochar tadbirlarni joriy etish ya'ni inson salomatligini "Ko'zmunchoq" qabiri ostida muhofaza qilish taraqqiyotlarini o'z aylanma trektoriyasiga jipslantiradi va xorijiy til muhitida akslantiradi. Innovatsion texnologiyalarni targ'ib qilish aynan maishiy kundalik tarmoqlar: sartaroshxona, restoran, ta'mirlash ustaxonalari va sayyohlik agentligi bilan inovatsion chet tilini o'rganish tapologiyasini hosil qiladi. Umumbashariy ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 483,5 mlrd so'mni tashkil etadi va bu ko'rsatkich esa til o'rganishga qiziqishi b'lgan insonlarni super tezlikda bilingvistlikka moslashtiradi..

ADABIYOTLAR TAHLILI

²<https://ipripak.org/realising-the-promise-of-service-led-growth-in-pakistan/>

“The role of foreign languages in development of service sphere” Ushbu maqolaning asosiy mazmuni shundan iboratki, chet tillarini to‘liqona ravishda bilish xizmat sektorining rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib, xizmat sifati, mijozlar bilan samarali, xushmuomalali xorijiy til muloqot kontekstida, korxonalarning Jahon bozoridagi ekstensiv ishtirokini amalga oshirish prinsiplari muhim ma’lumot sifatida qaraladi. Maqolada ta’kidlanishicha, chet tillarini mukammal bilgan xodim: mijoz ehtiyojini bildirishlarsiz ko‘zidan anglab yetadi, kompaniya reytingini reklama bannerlari orqali oshiradi, xalqaro hamkorlik tendensiyasini kalom sifatida qabul qiladi va chet tilini bilish salohiyatini o‘stiradi. [2]

“Trade Opportunities in Digital Services” va boshqa World Bank ma’lumotlari. Bu adabiyot shuni ta’kidlab o‘tadiki, raqamli xizmatlar va ularga talabni oshirishdagi to‘sqinliklar orasida xorijiy til ko‘nikmalarining yetishmasligi tartiboti muhokama qilinadi ya’ni til qobiliyati xizmatlar eksportida “Oltin kalit” vazifasini o‘taydi. Qolaversa, turli infratuzilma yoki transport muammolari bo‘lgan davlatlar raqamli xizmatlar orqali global savdoga chiqish va eksport hajmini oshirish imkoniga egadir [3].

“The role of foreign languages in facilitating successful professional activities (tourism)”³. Adabiyotning salohiyati turizm va xizmat ko‘rsatishda til va interkultural kompetensiyaning ya’ni turizm sohasida xorijiy tillarning o‘rni amaliy ahamiyati bilan chambarchas bog‘liqdir [4].

TAHLIL VA NATIJALAR.

Endi statistik jihatdan tahlil qilinadigan bo‘lsa, statistik ma’lumotlar bazasining tahliliga murojaat qilinadi, rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasining YaIMidagi ulushi 70% dan oshib ketgan: AQSH – 77,6%, Germaniya – 69,3%, Yaponiya – 69,9%. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xizmatlar sektori tez sur’atlarda o‘sib bormoqda ularga, Xitoy – 54,3%, Hindistonda – 54%, O‘zbekistonda esa 49,7% ni tashkil etadi. Bandlik ko‘rsatkichi ham shunga o‘xshash tendensiyalarni targ‘ib qiladi. AQSHda ishchi

³ <https://transport-research.uz>. sayti

kuchining 79,5%i xizmatlar jabhasida band bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 55,2%ni o'z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, raqamli xizmatlar ulushi rivojlangan mamlakatlarda 36-42 foizni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 18,3 foizni qamrab oladi va bu esa raqamli transformatsiyani tezlashtirish zaruriyatini talab qiladi.

Raqamli xizmatlar sohalari	Bozor hajmi (mlrd \$)	Yillik o'sish (%)	Foydalanuvchilar (mln)	Investitsiyalar (mlrd \$)	Kelajak Pragnozi 2027 (mlrd \$)
Elektron tijorat	5,820	18,7	3,450	245	10,340
Raqamli to'lovlar	9,460	23,4	4,890	178	18,520
Fintech xizmatlari	340	31,2	2,340	156	890
Onlayn ta'lim	315	28,6	890	38	580
Telemeditsina	127	19,3	456	89	340
Bulutli xizmatlar	545	12,4	1,890	42	1,120
Streaming platformalar	168	21,6	1,670	67	245
Yetkazib berish xizmatlari	378	15,9	2,120	34	780
IoT xizmatlari	234	26,8	567	71	420

Sun'it intellect xizmatlari	289	38,4	1,230	98	720
Blockchain xizmatlari	196	42,7	345	23	620

Manba: OECD (2024),⁴ Digital Economy Outlook, Statista (2024), Digital Market Outlook; IMF, OECD, UNCTAD, WTO (2023), Handbook on Measuring Digital Trade ma'lumotlari asosida shakllantirildi.

Moliya va sug'urta xizmatlari 23 foizlik o'sish bilan ikkinchi o'rinda turadi, bu global faktor bo'lgan yangi til o'rganish konsepsiyasi, fintech rivojlanishi va yangi xorijiy hamda moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi bilan bo'g'liq. Qolaversa, ta'lim va salomatlik sohalarida esa 28,1 foiz miqdorda o'sgani qayd etilgan va chet tilini bilishga intilish top darajada strategik jihatdan yuqorilab bormoqda.

XULOSA

Ushbu maqolaning mazmunidan kelib chiqib umumbashariy xulosa shuni ta'kidlab o'tadiki, xizmat ko'rsatish sanog'i O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida super tezlikda rivojlanayotgan xorijiy til o'rganish dolzarb tarmoq sifatida shakllanmoqda. Shu tufayli ham xorijiy tillarni mukammal bilgan mutaxassislar – savdo, turizm, konsultatsiya, xalqaro hamkorlik, eksport va onlayn xizmatlarda hamda milliy bozorni jahon global bozoriga moslahtirish qobiliyatiga egadir va bu amaliyot joriy etilishi shart. Mazkur sohaning rivojlanishi raqamli transformatsiyalarning yorug'lik tezligida insonlarning ehtiyojini qondiruvchi xizmat sektorlarini targ'ib qilishining tamoyili bu til o'rganish interaktiv metodllaridan to'laqonli foydalanishdir. O'zbekiston Respublikasining milyalar ichida bunday rivojlanish effekti nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlabgina qolmasdan, balki barqaror ijtimoiy rivojlanish, chet tilini o'rganish inovatsiyasi hamda aholining farovonligini oshirishga muhim faktor sifatida gavdalanadi hamda har bir xizmat ko'rsatish sohasiga xorijiy tillarni bilish ko'nikmasini ham joriy etish lozim. Maqola yuzasidan kelib

⁴ https://www.oecd.org/en/publications/oecd-economic-outlook-volume-2024-issue-2_d8814e8b-en.html sayti

chiqqan holda takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir: xuddi ona tili singari, xorijiy tillarning sofliğini saqlash, xorijiy tillarni innovatsion axborot texnologiyalar va kommunikatsiyalarga faol integratsiyalashuvini joriy etish va xizmat ko‘rsatish sektorining jadal rivojlanishida davlat siyosati va islohotlarni amalga oshirishni qamrab oladi. Shu tufayli ham xizmat tarmoqlarini takomillashtirishda til bamisoli tapologiya ko‘prik vazifasini o‘tashi va targ‘ib qilinishi kerak. Tillarni zamonaviy usullar orqali o‘rganish til o‘rganish salohiyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Til o‘rganish jarayonini oson va qiziqarli qilishning innovatsion usullari quyidagilardan iborat: til o‘rganish ilovalari, onlayn til kurslari, onlayn suhbatlashish platformalari hamda audiolingual metodlardan foydalanish joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha Jahon tendensiyalarining o‘rni”,
- [2] The role of foreign languages in development of service sphere”,
<https://agir.academiascience.org/>
- [3] “Trade Opportunities in Digital Services” va boshqa World Bank hujjatlari. World Bank. <https://www.worldbank.org/ext/en/home>
- [4] “The role of foreign languages in facilitating successful professional activities (tourism)”. <https://transport-research.uz/index.php/rs-conf>
- [5] <https://sci-p.uz/> sayti
- [6] https://www.oecd.org/en/publications/oecd-digital-economy-outlook_f0b5c251-en.html sayti